

IJOD FENOMENOLOGIYASIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA BADIY TASVIRNING O'ZARO UYG'UNLIGI

*Tilovova Muyassar Yo'ldosh qizi f.f.f.d.,
Turon universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada falsafa, adabiyot va psixologiya fanlarining omuxtaligiga e'tibor qaratgan holda, badiiy ijod fenomenologiyasining nazariy asoslari talqini tahlil qilingan. Badiiy ijod hodisasi asarning yaralishi bilan tugamaydi. Bu jarayon mahsulotni qabul qiluvchining fikrlari bilan davom etadi. Har bir ijodkor borliq fenomenlarini ongida o'zgacha sintezlaydi. Shu o'rinda o'quvchi ham shunday. Muallif nazarda tutgan g'oyani o'quvchi u istaganidek qabul qilmasligi mumkin. Yozuvchi o'zi qabul qilgan olamni badiiylashtirgan holda qayta ishlab beruvchidir. Adib xarakteri, shaxsiyati, individual xususiyatlari qahramonlari psixologiyasiga ko'chib, tasvir usullariga ta'sir qiladi. Ijodining ilk davrida shakllanishni boshlagan ijodiy uslubi kamdan-kam holatdagina o'zgarishi mumkin. Chunki yozuvchi, shoir, umuman, san'atkor xarakteri va shaxsiyatidan kelib chiqib, ular qolipi doirasida obrazlar yaratadi. Badiiy ijod hodisasida muallif–matn– o'quvchi birligi birday ishtirok etadi.

Annotation: *This article analyzes the interpretation of the theoretical foundations of the phenomenology of artistic creation, paying attention to the depth of philosophy, literature and psychology. The event of artistic creation does not end with the creation of the work. This process continues with the thoughts of the recipient of the product. Each creator synthesizes the phenomena of existence in his mind in a different way. In this place, the student is also like that. The idea intended by the author may not be accepted by the reader as he wants. The writer reproduces the world he has adopted by articulating it. The writer's character, personality, and individual characteristics move to the psychology of his characters and affect the methods of depiction. His creative style, which began to form in the early period of his work, can rarely change. Because the writer, poet, artist in general creates images within their mold based on their character and personality. The unity of author-text-reader participates in the event of artistic creation.*

Kalit so'zlar: *fenomen, fenomenologiya, ong, ongosti, ongsizlik, tasavvur, gallyutsinatsiya, psixik holatlar, psixoanalitika, Kant, Gegel, Husserl, Z. Freyd.*

Key words: *phenomenon, phenomenology, consciousness, unconsciousness, imagination, hallucination, mental states, psychoanalytics, Kant, Hegel, Husserl, Z. Freyd.*

Kirish. Badiiy ijod hodisasiga insoniyat tarixida adabiyot va ijodkorlik boshlanganidan beri ta'rif berib kelinadi. Badiiy ijod fenomenologiyasi sodda qilib tushuntirilganda ijod hodisasi, bu jarayonda ishtirok etuvchi omillar, uni yuzaga keltiruvchi sabablar, yaratuvchining psixik holatlari, qabul qiluvchining muallif tajribasi orqali uzatilgan signallarga nisbatan reaksiyalari talqinini tahlil qiladi. Badiiy ijod hodisasi – tahlil qilish o'ta murakkab bo'lgan jarayon. Chunki ijodkor ayni bir qolip, bitta metod doirasida yozmaydi. Unga metod haqida o'ylashning keragi ham yo'q. Ijodkor borliqdan qabul qilgan fenomenlarini matnga aylantiradi. Badiiylik, bo'yoqdorlik, ta'sirchanlik kabi unsurlarni qo'shib qayta ishlaydi. Biz odatda badiiy ijodni muallif tomonidan asarning yaratilish jarayoni deb tushunamiz. Ammo asarning yaralishi bilan badiiy ijod hodisasi to'xtab qolmaydi. Bu jarayon mahsulotni qabul qiluvchining fikrlari bilan davom etadi. Hech bir o'quvchi badiiy asarni o'qib reaksiya bildirmay o'tmaydi. Uning fikrlari qanchalik jo'n, qanchalik sodda bo'lmasin asarga nisbatan o'z bahosi mavjud. Adabiyot qonuni shu tartibda ishlaydi. Ijod hodisasiga faqat adabiy nuqtayi nazardan qaray olmaymiz. Bu jarayonga inson ruhiyatini o'rganuvchi psixologik va falsafiy yondashuvlarsiz kirishib bo'lmaydi. Maqolada falsafa, adabiyot va psixologiya fanlarining omuxtaligiga e'tibor qaratgan holda, badiiy ijod fenomenologiyasining nazariy asoslarini tahlil qilishga urindik.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy ijod hodisasi haqidagi dastlabki ta'riflarni qadimgi yunon faylasuflaridan topishimiz mumkin. Ular ijodning, badiiylikning mohiyatini tabiatda mavjud bo'lgan biror narsaga taqlid qilishda ko'rgan. Pifagor, keyinroq Aflotun va Arastular san'atning asosi sifatida mimesis nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning fikricha, san'at asarlari asl shakl va materiyaning birikmasi bo'lib, rassom tabiatda mavjud bo'lmagan biror narsa va shaklni yaratmaydi. U faqat koinot go'zalligiga taqlid qiladi. Antik falsafada ijod tabiatga taqlid qilish bilan bog'liq deb tushuntiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada germenevtik, psixologik, fenomenologik, avtobiografik metodlardan foydalanilgan. Fenomenologik metodning boshqa metodlardan farqi, uning adabiy-nazariy asoslari, kelib chiqishi va rivojlanish tarixi ko'rsatib o'tilgan.

Natijalar va muhokama. Badiiy ijod psixologiyasi va badiiy ijod fenomenologiyasi individualdir. Ularga nisbatan bitta umumiy qonuniyatni joriy qilib bo'lmaydi. Chunki har bir ijodkor borliq fenomenlarini ongida o'zgacha sintezlaydi. Kimdir oq rangda qorani, qorada oqni ko'radi va o'z qarashlarini o'quvchiga yuqtirishga urinadi. Bir asarni barcha birdek qabul qilmaydi. Badiiy asarning o'quvchisi qancha bo'lsa, u haqida shuncha fikr, shuncha hukm mavjud. Qaysinidir mutlaq to'g'ri yoki xato deb qabul qilmaslik kerak.

Badiiy ijod erkinligi insonning ajralmas huquqlaridan biridir. U ijod orqali o'zini shaxs sifatida namoyon qilib, jismoniy imkoniyati bilan bog'liq cheklovlar, ijtimoiy hayot cheklovlaridan xalos bo'ladi. Demak, badiiy ijod zamon va makondan tashqarida yuzaga kelmaydi. Inson ijodi ijtimoiy muhit, iqtisodiy, siyosiy sharoitlar, madaniyat darajasi, geografik joylashuvi va mavjud estetik tamoyillarning butun guruhi mahsuli hisoblanadi. Bu jarayonda ko'plab insonlar birday tushungan qonuniyatlarni ostin-ustun qiluvchi erkin shaxs harakati sodir bo'lganida ijodkorlik yuzaga chiqadi. Yangi fikr, yangi g'oyalar doim qabul qilingunicha to'siqqa uchragan. Ijodkor atrofdagilardan ko'ra o'zgaracharoq fikrlovchi kishidir. Urush ketayotgan jang maydonida barcha qonni va o'limni ko'rsa, u qurollar yonida ungan bir gulni ko'rib sevinishi, barcha odam gulzorda ko'zni quvnatuvchi gullarni ko'rsa ijodkor oyoq ostida ezg'ilanib ketgan bir maysani ko'rib iztirob chekishi mumkin. Badiiy ijod tufayli inson faqatgina moddiy jihatdan zarur bo'lgan mahsulotlar emas, uning ruhiyatiga ozuqa beradigan yangi narsani yaratadi. Badiiy ijod insonga o'zini noyob, o'ziga xos va erkin mavjudot sifatida his qilish, shaxs bo'lib shakllanish imkonini berdi.

Badiiy ijod hodisasidek murakkab jarayonga beriladigan ta'riflar munozarasi antik davrdan bugungi kungacha davom etayotgan bo'lsa-da, biror fikrni mutlaq to'g'ri deb qabul qilib, boshqasini chetga surib qo'yolmaymiz. Chunki ijodkor o'z ongi qabul qilgan fenomenlar bilan bir qatorda borliqdagi mavjud narsalardan ham nusxa ko'chiradi. Badiiy ijod hodisasiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni rad qilib bo'lmaydi. Ijod paydo bo'libdiki, ijodkor va jamiyat o'rtasida murosasiz qarama-qarshilik mavjud. Bu bahs hamon tugamagan. Jamiyat, ijtimoiy tuzum tomonidan rasman tan olingan asarlar umumbashariy bo'lmaydi. Nega jamiyat badiiy ijodni o'z talablariga bo'ysundira olmayapti? Bu savollar badiiy ijod hodisasi haqida jiddiy o'ylashni talab qiladi. Javoblar esa ijodkorning ijod jarayonidagi falsafiy mushohadalari, psixik holatlari, ongidagi borliq to'g'risidagi fenomenlar bilan bog'liq momentlarda aniqlanadi. Ijodning psixologik mexanizmida muallifning e'tirof etilishga bo'lgan ehtiyoji (yozuvchi garchi ochiq aytmasa-da yozayotgan asarining shon-shuhrat keltirishini istaydi), yaqin kishisi bilan tajriba yoki taassurot almashish istagi, ichki ozodligini kimningdir ruhiyatiga singdirish istagi muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni tasavvursiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tasavvur xotirada saqlangan g'oyalar va taassurotlar zanjirini uyg'unlikda ijodiy qayta tiklash imkonini beradi. Tasavvur tufayli muallifning ongida jonli suratlar paydo bo'ladi. Qahramonlarining yuzi hayajonlanadi, bezovtalanadi, obrazlarning suhbatlari, iztirobli monologlari, yig'ilari qulog'iga chalinib turadi. Muallif badiiy ijod hodisasida real borliqdan chekinib, o'zi yaratayotgan asar atmosferasining ichida yashaydi. Ijodiy tasavvur estetik zavq bag'ishlaydi va u gallyutsinatsiyadan farq

qiladi. “Ijodkorning ichki dunyoqarashida, – deb yozadi G.Flober, – gallyutsinatsiya bilan tasavvur orasida katta farq bor. Gallyutsinatsiya bilan siz dahshatni his qilasiz. “Men”ingizdan uzoqlashasiz. Poetikada esa quvonch bor”[9: 126]. Gallyutsinatsiya, aslida, tibbiyot termini. Biroq u badiiy tahlilda kishi ruhiyatini tavsiflash uchun ishlatiladi. Marhabo Qo‘chqorovaga ko‘ra, “mazkur adabiy hodisa o‘zbek adabiyotida azaldan mavjud edi, ammo nazariy termin sifatida biroz kechroq iste‘molda ishlatila boshlandi”[12: 169].

Badiiy ijodda ong, ong osti, ongsizlik, aql va sezgi ishtirok etadi. Biz maqolada o‘zbekcha muqobili “ong osti” deb tarjima qilinadigan “podsoznaniye” so‘zining ma‘nosini sharhlashga urindik. Bu atama dastlab 1889-yilda Per Janetning falsafiy dissertatsiyasida qo‘llangan. Uning ongsizlik haqidagi izlanishlari Zigmund Freyd bilan deyarli bir vaqtga to‘g‘ri keladi va bir-biriga o‘xshaydi. Ammo ongsizlik atamasini olimlar ko‘proq Freyd nomi bilan bog‘laydilar. Inglizcha “subconsciousness” – “ongsiz” so‘zidan kelib chiqqan istiloh miyada muntazam takrorlanib turadigan avtomatik fikrlarni qayd etadigan tezkor xotira sohasiga ishora qilish uchun ishlatilgan. Bunda miya o‘ylashga ortiqcha vaqt sarflamaydi, xotirada qayd etilgan algoritmgaga asoslanib qaror qabul qilaveradi. Masalan, kishi xotirasida yomon iz qoldirgan yoki qalbiga yoqimsiz xotiralarni joylagan yer, odamlar oldiga borishni istamaydi. Miya o‘z-o‘zidan yangi vajlar topib ishni paysalga soladi. O‘sha yerga kechikib borish, hatto umuman bormay qo‘yishga bahona qidiradi. Uning ong ostiga joylashib olgan mushohadalar tarixi ehtimol, bolaligiga, ehtimol, biror qondirilmagan istagiga tegishli bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, ijobiy xotiralar bilan eslanadigan joylarga oyoq tortadi. Inson bu vaziyatda nega shunday bo‘layotganini tahlil qilib o‘tirmaydi. Ongning o‘zida ayni signallar paydo bo‘lib ishlayveradi. Faqat uning yuzaga chiqishi uchun qulay sharoit tug‘ilsa bo‘lgani. Bunday sharoit ijodkorda san‘at asari yaratish fonida bo‘y ko‘rsatadi.

XX asrda badiiy ijod hodisasidagi ongsizlikni Z.Freyd va uning psixoanalitik maktabi tahlil qildi. Freydning fikricha, ijod jarayonida ijtimoiy murosasiz tamoyillar ijodkor ongidan siqib chiqariladi va shu bilan real hayotdagi ziddiyatlarni bartaraf etadi. Qondirilmagan istaklar fantaziyaning qo‘zg‘atuvchisi bo‘ladi[11:220]. Freydning psixoanalitik nazariyasiga diqqat qaratgan olim N.Afoqova “odamning jinsiy mayllari ijtimoiy, axloqiy to‘siqqa uchrasa, u ong ostiga qaytadi va energiyaning saqlanish qonuniga muvofiq butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi. Oradan qancha zamonlar o‘tib, boshqa shaklda, deylik badiiy ijod, misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari, intellektual tadqiqotlar, ilmiy kashfiyotlar, umuman, jamiyat uchun qimmatli faoliyat ko‘rinishida voqelikka aylanadi” – deb yozadi[1: №3]. Buni ijodkor hayotidagi qaysidir hodisa butun asarlarining syujet markazida turishi va qahramonlar xarakteridagi prototipga aylanishi mumkinligi bilan tushuntirish

mumkin. Ammo ongsizlik badiiy ijod hodisasi yuzaga kelishining yagona sababi bo'lolmaydi. Freyddan keyin uning g'oyalari tanqidga uchradi. Chunki ijod hodisasiga faqat bir tomonlama yondashib bo'lmasdi. Badiiy ijodda ong va ong osti, sezgi va aql, tabiiy va orttirilgan mahorat, tajriba o'zaro omuxtalashadi. Ongli tamoyil o'zining bosh maqsadini, eng muhim vazifasini va asar badiiy konsepsiyasining asosiy konturlarini boshqaradi, muallif tafakkuridagi "yorqin nuqta"ni yoritadi, uning butun hayotiy va badiiy tajribasi ana shu nuqta atrofida uyushadi. Ongli prinsip ijodkorning o'zini kuzatishi, o'zini boshqarishini ta'minlaydi, o'z-o'zini tanqidiy tahlil qilish va baholashga yordam berib, keyingi ijodiy o'sishga hissa qo'shadigan xulosalar beradi. Shu jihatlari bilan "ong osti" tushunchasi miyada avtomatik sodir bo'ladigan insonning mavjud refleksiv harakatlarini ifodalaydi. Ammo uning ham ma'lum darajada ong bilan bog'liqligi bor. Shuning uchun "ongsiz", "ong osti" terminlariga muqobil sifatida "xotira", "asl xotira" yoki "yopiq xotira" so'zlarini qo'llash mumkin, nazarimizda. Chunki u ongning chuqurroq qatlamidir. Inson keyinchalik borliqdan qabul qiladigan fenomenlar qo'shimcha bo'lib, ular ongda tasavvurning boyishiga xizmat qilib xotira bazasini kengaytiradi. Fenomenologiya esa inson ongining borliqdan qabul qiladigan keyingi hodisalarini yopiq xotiraning qo'zg'atuvchisi sifatida tahlil qiladi. Biz milliy adabiyotimiz tahlilida Z.Freydning inson mohiyati haqidagi psixoanalitik qarashlarini qabul qilishga istihola qilamiz. Uning fikrlari mentalitetimizga to'g'ri kelmaydi, albatta. Ammo G'arb butun tasvirni yalang'och holda, Sharq esa odob doirasida, qog'ozga o'rab tasvirlashni ma'qul ko'radi. Lekin inson tuyg'ulari va "men"i barcha makon va zamonda bir xil his etilgan.

Yopiq xotiralar ijodkorda Xudo yuqtirgan iste'dod orqali badiiylashgan holda yuzaga chiqadi. Lekin bu iste'dod po'rtanasini aql boshqarib turadi, u yozayotgan narsasini ongli ravishda his qiladi. Amerikalik psixolog F.Berron o'tkazgan tajribaga ko'ra, yozuvchining emotsionalligi, sezgisi aqldan ustundir. Professional ijoddan uzoq bo'lgan odamlar orasida esa sezgisi rivojlangan shaxslar kam. Ular hislardan ko'ra aqlni ustun qo'yadilar. Qadimgi yunon faylasuflari ijodkorni "xudo ilhomlantirgan" deya talqin qilishganda badiiy ijodda ongsizlik hodisasini nazarda tutishgan. Shelling bu haqda shunday yozadi: "ijodkor beixtiyor, hatto o'zining ichki istagiga zid ravishda ijod hodisasiga aralashadi"[7: 184]. Demak, ijodkorga bir kuch ta'sir qiladi, voqelikni tasvirlash va ifodalashga undaydi. Adabiyotshunoslar bu hodisani ilhom deb ataluvchi g'ayritabiiy kuch, motivatsiya deb tushuntirishadi. Yuriy Borev "Estetika" darsligida ijodiy jarayon ijodkor ilhomlanish holatida bo'lganda samarali bo'lishini yozadi. Fikrlar ravshanligining ijodiy-psixologik holatida hayot muammolarining mohiyatini chuqur anglash, ongda to'plangan borliq to'g'risidagi badiiy tajriba beixtiyor tashqariga chiqib, matnga aylanadi.

XVIII asrda nemis klassik falsafasining atoqli namoyandasi I.Kant eng mukammal, rivojlangan va tugal ijodkorlik konsepsiyasini yaratdi va uni "Tasavvurning ishlab chiqarish qobiliyati" deb nomlab, ijodiy faoliyatni tahlil qildi. I.Kant ijodkorlikni dunyo qiyofasini o'zgartiruvchi yangi, ilgari mavjud bo'lmagan, "insonlashtirilgan" dunyoni yaratuvchi subyektiv faoliyat deb hisoblaydi[10: 108]. I.Kant ong strukturasining eng muhim elementlaridan biri sifatida ijodiy jarayonning tuzilishini tahlil qiladi. Tasavvurning ijodiy qobiliyati hissiy taassurotlarning xilma-xilligi va ong tushunchalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi. Tasavvur tafakkur va faoliyatning umumiy manbaidir. Ijodiy tasavvurda tafakkur mavjud bo'lganligi sababli, u ong fenomenlari, ong g'oyalarini borliq bilan bog'lab turadi. I.Kant xayolning alohida funksiyasi haqida ham to'xtalib, aynan xayol orqali obrazlar yaratilishini va bu fantaziyani keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Tasavvurning taqlid emas, ijodiy faoliyat ekanini qayd etadi. Tasavvur xotira ta'sirisiz ham o'zini namoyon qilish qobiliyatiga ega. "Ijodkor, – deb yozadi I.Kant, – faqat taqlid qiladigan usta emas, balki o'z asarini asl nusxada yaratishni biladigan dahodir"[2: 49].

Kantning tasavvur haqidagi ta'limotini davom ettirgan Shelling tasavvurning ijodiy imkoniyatini ongli va ongsiz faoliyatning asosi sifatida ko'rgan. Uning fikricha, bunday qobiliyatga ega bo'lganlar o'zlari sezmagan ravishda ilhom holatida yaratadilar. Ijod inson faoliyatining eng oliy shaklidir. Shelling ayni nuqtada ijodkor "Mutlaq Xudo bilan" aloqa qilishi mumkinligini, uni tasavvur eta olishini nazarda tutadi[7:193].

XIX asr oxiri va XX asr boshlari falsafasida ijodkorlikni mexanik, texnik faoliyatga qarama-qarshi ravishda ko'rib chiqish boshlandi. H.Bargson o'zining "Materiya va xotira" asarida ijodkorlikning eng rivojlangan konsepsiyasini yaratdi. U badiiy ijodni hayotning mohiyati, hayot falsafasi deb hisobladi. Bargsonning fikricha, intellekt yangi narsalarni yaratishga qodir emas, u faqat aslida mavjud narsalarni birlashtirishi mumkin[5:151]. Yangi tajribalar, motivatsiyalar aynan badiiy ijod orqali beriladi. Ijodkor va ijod to'g'risida bugungacha aniq to'xtamli fikr yo'q. Chunki u psixik va falsafiy jarayon bo'lgani uchun, turlicha munozaralar mavjud.

Ijodga fenomenal qarash zarurati adabiyotimizda yaqin yillarda paydo bo'ldi. Bu ijodkorlikning o'ziga xos o'zgarimas xususiyatlaridan voz kechish kerakligini ko'rsatadi. Badiiy ijod fenomenologiyasi dunyo hodisalariga e'tiborni kuchaytirishdan, ushbu hodisalar haqidagi taassurotlarni xotirada saqlash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Badiiy ijodda xotira muhim psixologik omil hisoblanadi. Voqelik badiiy jihatdan aynan xotirada shakllanib, o'tmishni tiriltiradi. Katta hajmdagi asarlar yaratishda xotiraning roli juda muhimdir. L.N.Tolstoy "Urush va tinchlik" asarini yaratishi haqida shunday yozgan edi: "Ekin ekishga majbur bo'lgan

dalani chuqur haydashning dastlabki ishi men uchun qanchalik qiyinligini tasavvur qila olmaysiz. Faqat bittani tanlashim kerak bo'lgan millionlab kombinatsiyalarni ko'rib chiqishim kerak edi"[4: 227-230].

Ehtimol, kichik hikoya bir o'tirganda yozib tugallanishi mumkin. Lekin ungacha bo'lgan davr mashaqqatli. Muallif hikoya uchun hayotdagi minglab detallarni kuzatadi, tanlab oladi, qayta ishlaydi. Yaratayotgan har bitta obrazining psixologiyasida yashab, ular tushgan vaziyatlarni his qilib, tajribadan o'tkazadi. Qahramonlarining ruhiy holatiga kira olgandan keyingina yozadi.

Ijodkor badiiy olamining o'ziga xosligini tahlil qilish maqsadida tadqiqotchilar falsafiy izohlarga murojaat qiladilar. Bu to'g'ri, chunki yetuk davr yozuvchisi ijodida falsafiy, gnoseologik muammolar yaqqol ko'rinishi kerak. Yetuk badiiy asar faqatgina adabiyotga daxldor emas, unga falsafiy g'oyalar, psixologizmning mukammal ko'rinishlari zarur. Bundan tashqari, ijodkor o'z qobig'idan chiqqan, umumbashariy mavzularda qalam tebratishi kerakki, shundagina asar millat, til, din tanlamaydi. Yozuvchi o'zi mansub xalq adabiyotini dunyoga olib chiqa oladi. Asarning badiiyati, o'z navbatida, falsafaga yo'l ochadi. Adabiyot va falsafa esa fenomenologiyada bir-biriga uzviy bog'liq tushunchalar sifatida qabul qilinadi. Falsafa inson mohiyatini, mavjudlik tushunchasini taftish qilar ekan, borliq va ong o'rtasidagi munosabat masalasini o'z qoliplari doirasida hal qiladi.

Fenomenologlar badiiy asarning "inson" jihatiga diqqat qaratib tahlil qiladilar. Muallifning subyektiv talqinida bir shaxs, bir millat, butun mamlakatning xarakteri ifodalanadiki, ayni shu narsa ontologik qatlamlar, odamlar taqdirining fenomenalligini ko'rishga imkon beradi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarini fenomenologik tahlil qilish asosida san'at asarining o'ziga xos qiymatini yagona, takrorlanmas sifatida o'rganish uslubi yotadi. Fenomen – asarning ichida paydo bo'ladi va uni tashkil etuvchi tushunchalar adabiyotshunos va tanqidchini tashqi faktorlarning barchasini qavsga olib, badiiy haqiqatni "matn ortidan" izlashga majbur qiladi. Bu yerda maksimal xohlangan narsa muallifning va shunga mos ravishda o'quvchining ham "men"ini toza ong sifatida oshkor qilishdir. Ijodkor badiiy ijod jarayonida o'z ong fenomenologiyasidagi g'oyalarni o'quvchiga yuqtirib boraveradi.

Badiiy ijod namunasini tahlil qilganda, avvalo, yozuvchi ham inson ekanini hisobga olish kerak. Barcha asarlardan fenomenologik tamoyillarni topib bo'lmaydi. Chunki yozuvchi o'zga olamning odami emas. U ham boshqalar singari jamiyat, davr, siyosiy vaziyat hukmi ostida bo'lishi hamda barcha asarlarida sof ong fenomenlarini ifodalay olmasligi, sharoitdan kelib chiqib yozishi mumkin. Ba'zan ijtimoiy-mafkuraviy tamoyillar fenomenologik tamoyildan ustun kelishi ham bor gap. Bunday holat nafaqat bizning adabiyotimiz, balki dunyo adabiyotida kuzatilgan. Rus

adabiyotshunosi S.A.Kibalnik “Chexovning badiiy fenomenologiyasi” maqolasida Pushkin ijodi haqida ham to‘xtalib o‘tar ekan shunday yozadi: “XIX-XX asrlar rus adabiyotidagi g‘oyaviy va fenomenologik ikki turni ko‘rsatish mumkin. Pushkinni ikkinchisining kashfiyotchisi deb hisoblaymiz, ammo uning nasri she‘riyatiga nisbatan qarama-qarshidir. Pushkin nasrida mafkuraviy tamoyil fenomenologik tamoyildan ustun keladi. She‘riyatda esa buning teskarisi”[8: 112]. Biz Pushkinning hayot yo‘liga nazar tashlasak, bu yo‘l doim birday tekis bo‘lmaganini ko‘ramiz. Demak, yozuvchining zamoni ulug‘lagan, o‘zligiga qarshi aytilgan fikrlari bo‘lishi mumkin. Ammo bunday yakkam-dukkan uchrovchi gaplar yozuvchining mahorati, ijod samaradorligiga soya solmagan. Tahlilga salbiy tomondan yondashgan tanqidchi esa ijtimoiy tuzum qoliplari bilan, uning siyosiy buyurtmasi asosida harakat qilgan. Tarixda bu kabi hodisalarga misol ko‘p. Bu jarayon haqida fikr yuritir ekan adabiyotshunos Bahodir Karim quyidagi fikrni keltiradi: “Badiiy asar matnini to‘g‘ri, o‘z holicha, hech qanday mafkuraviy-siyosiy ta‘sirlarga berilmasdan tushunib olish natijasida unda tasvirlangan voqea-hodisalar, his-tuyg‘ular to‘g‘ri va o‘z holicha ilmiy tilga ko‘chadi”[3: 7].

Dunyo adabiyotshunosligida Mixail Kazinik B.Pasternakning “Daholar sirlari” kitobida B.Pasternakning “Hamlet” she‘rini fenomenologik jihatdan tahlil qiladi. U bu ishga fenomenologik tanqidchilarning asosiy pozitsiyasi bilan yondashadi. Hamletni o‘ynayotgan aktyor sahna ortida turib tomoshabinlar shovqini pasayishini kutadi. U sahnaga chiqqach, uch soat davomida adolatsizlikka qarshi yakka o‘zi kurashishi va oxirida vafot etishi kerak. “Har safar sahnaga chiqish paytida aktyor Hamletning o‘lishini biladi. Hamlet o‘zi esa buni bilmaydi. Aktyor va Hamlet bitta odamga aylanishi kerak”[10: 136]. Tahlilga ko‘ra, aktyor Hamletning hayoti uchun, adolatni tiklash uchun kurashishi va Hamletdan kelajakda o‘zini o‘lim kutayotganini yashirishi kerak. Hamlet jangda g‘alaba qozonish uchun, aktyor esa Hamletning jangda yutqazish va o‘lishi uchun sahnaga chiqishi kerak. Bu tahlilda ijodkor o‘zi yaratayotgan obraz orqali yangi tajriba his qilishi, qiyin bo‘lsa-da boshqalarni ham ishontirishi va tomoshabinga yuqtirishi kerakligi tasvirlanadi.

Xulosa: Ijodkor ulg‘aygani sari ijodidagi mavzular ko‘lami kengayadi, borliqqa turli rakurslardan qarab, ko‘plab tajribalarni boshdan kechiradi, hayot haqidagi falsafiy mushohadalari teranlashadi. Biroq asl ong fenomenlari o‘zgarmasdan o‘zini to‘laroq namoyon qilishni boshlaydi. Chunki ular borliqni dastlab qabul qilayotganida shakllangan hodisalardir. Yozuvchi o‘zi qabul qilgan olamni badiylashtirgan holda qayta ishlab beruvchidir. Adib xarakteri, shaxsiyati, individual xususiyatlari qahramonlari psixologiyasiga ko‘chib, tasvir usullariga ta‘sir qiladi. Ijodining ilk davrida shakllanishni boshlagan ijodiy uslubi kamdan-kam

holatdagina o'zgarishi mumkin. Chunki yozuvchi, shoir, umuman, san'atkor xarakteri va shaxsiyatidan kelib chiqib, ular qolipi doirasida obrazlar yaratadi.

Maqolada badiiy ijod hodisasi, uni yuzaga kelish sababi, bu jarayonda muallif va o'quvchining ishtirokini tahlil qilishga urindik. Chunki badiiy asar muallif dunyoqarashidan tashqaridagi narsa emas. Sodda qilib tushuntirilganda ijod hodisasi, bu jarayonda ishtirok etuvchi omillar, uni yuzaga keltiruvchi sabablar, yaratuvchining psixik holatlari, qabul qiluvchining muallif tajribasi orqali uzatilgan signallarga nisbatan reaksiyalari tahlilidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Афоқова Н. Навоий ва психоанализ // “Тафаккур”. – 2022. – № 3.
2. Асмус В.Ф. Диалектика Канта. – Москва: 1929. – Б.49.
3. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: Академнашр, 2004. – Б.7.
4. Борев Ю. Эстетика: учебник. – М.: Высшая школа, 2002. – С.227-230.
5. Bargson H. Matter and memory. – New York: Zone books, 1990. – P.151.
6. Крюков А. Философия и искусство у Шеллинга. История философии и социокуль-турный контекст. Москва: 2012. – С.184.
7. Крюков А. Философия и искусство у Шеллинга // История философии и социокуль-турный контекст. – Москва: 2012. – С.193.
8. Кибальник С.А. Художественная феноменология Чехова. - <https://www.bibliofond.ru>, 2010.
9. Кожемякина И. “Художественное творчество и его особенности. Философия и психология творчества” Алматы, 2012.
10. Казиник М. Тайны гениев. – Москва: Новы Акропол, 2011. – С.136.
11. Ойзерман Т. Философия Канта и современность. – Москва: 1974. – С.108.
12. З.Фрейд. Поэт и фантазия // <https://cyberleninka.ru/article/n/poet-i-fantaziya>
13. Қўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б.169.